| | |
|---|---|
| **“Barakali so‘m” milliy valyutada onlayn omonati oferta shartnomasi** | **Договор-оферты онлайн вклада “Barakali so‘m” в национальной валюте** |
| “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki (bundan buyon shartnoma matnida *“Bank”* deb yuritiladi) bir tomondan va keyingi o’rinlarda *“Omonatchi”* deb ataluvchi jismoniy shaxs ikkinchi tomondan (*birgalikda esa “Tomonlar” deb ataluvchilar yoki alohida “Tomon” deb ataluvchi*) ushbu omonat oferta shartnomasini (keyingi o’rinlarda - *“shartnoma”* deb ataladi) quyidagilar to’g’risida tuzdilar: | Акционерно-коммерческий банк “Микрокредитбанк” (далее в тексте договора “Банк”) с одной стороны, и физическое лицо именуемое в дальнейшем “Вкладчик” с другой (совместно именуемые “Стороны” или по отдельности “Сторона”) заключили настоящий договор-оферты (далее – “договор”) вклада о нижеследующем: |
| **1. Asosiy tushunchalar** | **1. Основные понятия** |
| 1.1. **Onlayn omonat** – bu, jismoniy shaxslar tomonidan milliy valyutada bankning “MAVRID” mobil ilovasi orqali joylashtiriladigan omonat. | 1.1. **Онлайн вклад** – это вклад, вносимый физическими лицами в национальной валюте через мобильное приложение банка “MAVRID”. |
| 1.2. **Mobil ilova** – Mobil ilovani ishlatish va internetga ulanish imkoni mavjud mobil telefon yoki boshqa qurilma orqali elektron bank xizmatlaridan foydalanish uchun mo’ljallangan “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankiga tegishli dasturiy ta’minot (keyingi o’rinlarda “mobil ilova”). | 1.2. **Мобильное приложение** – программное обеспечение, принадлежащее акционерному коммерческому банку “Микрокредитбанк” (далее – “мобильное приложение”), предназначенное для пользования электронными банковскими услугами через мобильный телефон или иное устройство с возможностью использования мобильного приложения и подключения к Интернету. |
| 1.3. **Onlayn omonat muddati** – bu, mazkur shartnoma shartlariga ko’ra omonatning bank omonat hisobvarag’ida saqlanadigan muddati. | 1.3. **Срок онлайн-вклада** – это период, в течение которого вклад хранится на банковском депозитном |

| | |
|---|---|
| | счете в соответствии с условиями настоящего договора. |
| 1.4. **Aksept** – oferta shartnomasining to’liq va so’zsiz qabul qilinishi. Oferta shartnomasining akseptlanishi uning tuzilganligini vujudga keltiradi va yuridik kuchga ega ekanligini anglatadi. | 1.4. **Акцепт** – это полное и безоговорочное принятие договора оферты. Акцепт договора-оферты является его заключением и означает вступление в юридическую силу. |
| **2. Shartnoma predmeti** | **2. Предмет договора** |
| 2.1. Bank mazkur shartnomaga asosan Omonatchining Bank hududiy bo‘linmalarida ochilgan bank kartasi va/yoki omonat hisobvaraqlaridagi mablag‘larini mobil ilovasi orqali naqd pulsiz shaklda omonatga qabul qilish, omonatni qaytarish va unga foizlar hisoblash hamda Omonatchining mazkur omonat hisobvarag‘ini masofadan turib boshqarishiga ruxsat berish majburiyatini oladi. | 2.1. По настоящему договору Банк обязуется принимать денежные средства Вкладчика на вклад в безналичной форме через мобильное приложение с банковской карты и/или депозитных счетов Вкладчика, открытых в отделениях Банка, возвращать вклад и начислять проценты, а также предоставлять Вкладчику возможность удаленного управления данным депозитным счетом. |
| 2.2. Omonatchi omonat hisobvarag‘idagi mablag‘lariga hisoblangan foizlarni mobil ilova orqali ixtiyoriy ravishda tasarruf etadi. | 2.2. Вкладчик через мобильное приложение добровольно распоряжается процентами, начисленными на его средства на депозитном счете. |
| 2.3. Omonatning shartlari bo‘yicha barcha ma’lumotlarni mazkur *https://mkbank.uz/uz/private/deposit/* veb-sayti orqali olishingiz mumkin. | 2.3. Всю информацию об условиях вклада можно получить через сайт *https://mkbank.uz/uz/private/deposit/* |
| **3. Shartnomani akseptlash** | **3. Акцептирование договора** |
| 3.1. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. | 3.1. Настоящий договор является публичной офертой в соответствии с статьей 367 и второй частью статьи 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан. |

3.2. Mijoz "MAVRID" mobil ilovasiga kirib, ilovaning yoki uning ayrim xizmatlaridan foydalanishni ma'qullaganda, Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga asosan akseptlangan hisoblanadi hamda mijoz omonatchi sifatida qatnashadi.

3.3. Mazkur oferta shartnomasining shartlarida ko'rsatilgan xatti-harakatlarning Omonatchi tomonidan amalga oshirilishi ushbu oferta shartnomasini Omonatchi tomonidan unda ko'rsatilgan va nazarda tutilgan shartlar asosida tuzish bo'yicha roziligini anglatadi.

3.4. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 759-moddasiga muvofiq omonatga qo'yilayotgan mablag'lar bankka kelib tushgan va mazkur shartnomada nazarda tutilgan xatti-harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga ega bo'ladi hamda Omonatchining mazkur shartnoma shartlarini to'liq qabul qilganligi (akseptlaganligi) ni anglatadi.

## 4. Omonatning shartlari

| | | |
|---|---|---|
| 4.1 | Omonat nomi | "Barakali so'm" |
| 4.2 | Omonat turi | Muddatli |
| 4.3 | Valyutasi | Milliy valyuta – So'm |
| 4.4 | Muddati | 24 oygacha |
| 4.5 | Yillik foiz stavkasi | 21% |

3.2. В случае входа клиента в мобильные приложения "MAVRID" и согласия пользования приложением или отдельными его сервисами Договор будет считаться акцептированным в соответствии с статьей 370 Гражданского Кодекса Республики Узбекистана, а клиент будет принимать участие как вкладчик.

3.3. Осуществление Вкладчиком действий, указанных в условиях настоящего договора-оферты, означает согласие Вкладчика заключить настоящий договор-оферты на основании указанных и предусмотренных в нем условий.

3.4. В соответствии со статьей 759 Гражданского кодекса Республики Узбекистан настоящий договор считается заключенным с момента поступления (зачисления на депозитный счет) денежных средств в банк и совершения действий, предусмотренных настоящим договором и соглашение будет иметь юридическую силу и означать, что Вкладчик полностью принял (акцептировал) условия настоящего договора.

## 4. Условия депозита

| | | |
|---|---|---|
| 4.1 | Название вклада | "Баракали сум" |
| 4.2 | Тип вклада | Срочный |
| 4.3 | Валюта | Национальная валюта – Сум |
| 4.4 | Срок | До 24 месяцев |

| | | |
|---|---|---|
| 4.6 | Eng kam miqdori | 3 mln. so‘m |
| 4.7 | Qo’shimcha shartlari | • Omonat joylashtirish shakli: Mobil ilova orqali yoki bank kassalarida faqat naqd pul ko‘rinishida<br>• Bank kassalarida bank kartalari orqali naqdsiz ko‘rinishda omonatlar jalb qilinmaydi.<br>• Agar omonat shartnomasi tuzilgandan so‘ng:<br>• Qisman qaytarib olish: Omonat joylashtirilgan sanadan boshlab 1 oydan keyin ruxsat etiladi. Bunda, omonat bo'yicha kamida<br>• 3 mln. so‘m qoldiq hisobvaraqda saqlanib qolishi shart.<br>• Omonatning foizini har oyda olish mumkin.**<br>• agar omonat shartnomasi tuzilgandan so‘ng:<br>- 1 oy ichida omonat to‘liq qaytarib olinsa, foiz to‘lab berilmaydi va avval to‘langan foizlar omonat summasidan chegirib qolinadi;<br>- 2 oydan 24 oygacha muddat ichida omonat to‘liq yoki qisman qaytarib olinsa - yillik 21% dan to‘lab beriladi.<br>• Qo‘shimcha to‘lovlar qabul qilinadi.<br>• Eng yuqori miqdori chegaralanmagan. |

| | | |
|---|---|---|
| 4.5 | Годовая процентная ставка | 21% |
| 4.6 | Минимальная сумма | 3 млн. сум |
| 4.7 | Дополнительные условия | • Форма размещения вклада: Только наличными в кассах банка или через мобильное приложение. Привлечение вкладов в безналичной форме через банковские карты в кассах банка не производится.<br>Если после заключения договора вклада:<br>• Частичное снятие: Разрешается по истечении 1 месяца с даты размещения вклада. При этом на счете вклада должно быть не менее 3 млн сумов.<br>• Проценты по вкладу можно получить ежемесячно.**<br>• Если после заключения договора вклада:<br>- При полном снятии вклада в течение 1 месяца проценты не выплачиваются, а ранее уплаченные проценты удерживаются из суммы вклада;<br>- При полном или частичном снятии вклада в срок от 2 до 24 месяцев – выплачивается 21% годовых.<br>• Дополнительные взносы принимаются.<br>• Максимальная сумма не ограничена.<br>• Капитализация: Не предусмотрена. |

| | | |
|---|---|---|
| | | • Kapitalizatsiya: Mavjud emas. **Omonat foizlari faqat Mikrokreditbank ATB tomonidan emissiya qilingan bank kartalariga tushirib beriladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | | **Проценты по вкладу начисляются только на банковские карты, выпущенные АКБ «Микрокредитбанк». |

## 5. Omonatga foizlar hisoblash va to’lash tartibi

5.1. Omonatga foizlar har kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab yoziladi. Foizlar omonat mablag‘i Bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u Omonatchiga qaytarilgan kundan oldingi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi.

5.2. Omonat summasiga foizlar kunlik hisoblanib, omonatchining nomiga ochilgan 22400 - “To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar” hisobvarag‘ining subhisobvaraqlarida yig‘ib boriladi. Ushbu mablag‘larni Omonatchi shartnoma shartlari doirasida mustaqil tasarruf etadi.

5.3. Omonatga qo‘yilgan mablag‘lar muddatidan oldin to‘liq qaytarib olinganda foizlar mazkur shartnomaning 4.7-bandida keltirilgan shartlar asosida to‘lab beriladi.

5.4. Agar Omonatchi tomonidan omonat muddati tugagandan so‘ng omonat mablag‘larini qaytarib berishni talab etmagan yoki boshqa hisobvaraqqa qayta rasmiylashtirilmagan hollarda, omonat muddati tugagan sanadan omonat qaytarilgan kunga qadar omonat

## 5. Порядок начисления и выплаты процентов по вкладу

5.1. Проценты по вкладу начисляются ежедневно исходя из базового годового периода - 365 дней. Проценты начисляются за период со следующего дня с момента поступления средств в Банк до дня, предшествующего ее возврату Вкладчику.

5.2. Проценты на сумму вклада начисляются ежедневно и накапливаются на субсчетах счета 22400 - «Начисленные проценты к уплате», открытых на имя вкладчика. Этими средствами Вкладчик распоряжается самостоятельно в рамках условий договора.

5.3. В случае досрочного возврата внесенных денежных средств в полном объеме проценты выплачиваются на основании условий, указанных в п. 4.7 настоящего договора.

5.4. Если Вкладчик не потребовал возврата денежных средств после окончания срока вклада или если вклад не переоформлен на другой счет, проценты на сумму вклада не начисляются с момента окончания срока вклада до дня возврата денежных

MAVRID MKBANK

| | |
|---|---|
| summasiga foiz to'lab berilmaydi va omonat pul mablag'i talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. | средств вкладчику и денежные средства вклада будут переведены на депозитный счет до востребования. |
| **6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari** | **6. Права и обязанности сторон** |
| **6.1. Omonatchining huquqlari:** | **6.1. Вкладчик вправе:** |
| 6.1.1. Bankning "MAVRID" mobil ilovasidan belgilangan tartibda foydalanish. | 6.1.1. Использовать мобильное приложение банка «MAVRID» в установленном порядке. |
| 6.1.2. Mazkur Shartnomaning qog'ozga chop qilingan shaklini Omonat hisobvarag'i ochilgan Bank hududiy bo'linmasidan hech qanday komission haqsiz olish. | 6.1.2. Получить распечатанную форму настоящего Договора без комиссии в отделении Банка, в котором открыт счет Вклада. |
| 6.1.3. Mazkur shartnoma shartlari doirasida omonat mablag'lariga hisoblangan foizlarni erkin tasarruf etish. | 6.1.3. Свободно распоряжаться процентами, начисленными на депозитные средства в рамках условий настоящего договора. |
| 6.1.4. Ushbu shartnomani akseptlash haqida mustaqil ravishda qaror qabul qilish. | 6.1.4. Принять самостоятельное решение об акцептировании настоящего договора. |
| **6.2. Omonatchining majburiyatlari:** | **6.2. Вкладчик обязан:** |
| 6.2.1. Masofadan turib omonat hisobvarag'i ochish uchun «Mikrokreditbank" ATB tomonidan muomalaga chiqarilgan bank karta egasi bo'lish. | 6.2.1. Быть владельцем банковской карты, выпущенной АКБ "Микрокредитбанк", для дистанционного открытия депозитного счета. |
| 6.2.2. Omonatga pul mablag'ini kirim qilish uchun bank kartasida omonatga kirim qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'iga ega bo'lishi. | 6.2.2. Иметь необходимые денежные средства на банковской карте для внесения денег во вклад. |
| 6.2.3. Omonat hisobvarag'ini ochish uchun kerakli bo'lgan barcha | 6.2.3. Проводить все необходимые для открытия депозитного счета |

| | |
|---|---|
| amaliyotlarni “MAVRID” mobil ilovasi orqali ketma-ketlikda amalga oshirish. | операции последовательно через мобильное приложение «MAVRID». |
| 6.2.4. Omonat hisobvarag‘idan amaliyotlarni amalga oshirish davomida mobil ilovadagi uzilishlar yoki texnik nosozliklar haqida Bank hududiy bo‘linmasini telefon orqali xabardor qilish. | 6.2.4. Уведомлять отделения Банка по телефону о перебоях или технических сбоях в мобильном приложении при осуществлении операций с депозитного счета. |
| 6.2.5. Ilovaga kirish uchun berilgan “Login”, “Parol” va “PIN” kodni boshqa shaxslarga oshkor qilmaslik. | 6.2.5. Не разглашать другим лицам «Логин», «Пароль» и «ПИН-код», данные для входа в приложение. |
| 6.2.6. Mobil aloqa yoki internet tarmog‘i orqali Omonat bilan bog‘liq bo‘lgan bank amaliyotlarini boshqa shaxslar ishtirokisiz yoki kuzatuvisiz amalga oshirish. | 6.2.6. Осуществлять банковские операции, связанные с Вкладом, посредством мобильной связи или сети Интернет без участия или контроля других лиц. |
| 6.2.7. Bank sirini tashkil etuvchi va shaxsiy ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlash. | 6.2.7. Обеспечить конфиденциальность банковской тайны и персональных данных. |
| 6.2.8. Omonatchining bankdan olgan kredit (mikroqarz) larining asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari shartnomada belgilangan muddatda so‘ndirilmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq kredit (mikroqarz) larning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari bo‘yicha zarur mablag‘larni mazkur omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘laridan akseptsiz ravishda bank tomonidan undirilib olinishiga rozilik bildirish va qarshilik qilmaslik. | 6.2.8. Не препятствовать и дать согласие на взыскивание банком в безакцептном порядке необходимых денежных средств для погашения задолженности по основному долгу и процентной задолженности кредита (микрозайма) Вкладчика из средств на этом депозитном счете в соответствии со статьей 783 Гражданского кодекса Республики Узбекистан в случае не погашения задолженностей в срок, указанного в договоре по основному долгу и процентам кредита (микрозайма) вкладчика, полученного от банка. |
| **6.3. Bankning huquqlari:** | **6.3. Банк вправе:** |
| 6.3.1. Omonatchining talabi bilan omonat mablag‘i muddatidan oldin to‘liq | 6.3.1. При досрочном возврате суммы вклада в полном объеме по |

| | |
|---|---|
| qaytarilganda, omonat mablag'lari qaytarilguniga qadar hisoblanib, to'langan foizlar bilan mazkur shartnomaning 4.7-bandida keltirilgan mos muddatlar uchun belgilangan foizlar o'rtasidagi farqni shartnomada belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilish hamda hisobvaraqdagi qoldiqdan ushlab qolish. | требованию вкладчика, производить перерасчет разницы между процентами, рассчитанными и выплаченными до момента возврата вклада, и фиксированными процентами за соответствующие периоды, указанными в пункте 4.7 настоящего договора, в порядке, установленном договором и удержание из остатка на счете. |
| 6.3.2. Omonatchining hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan xatlanganda yoki band solingan hollarda hisobvaraq orqali chiqim amaliyotlarini bajarishni to'xtatish. | 6.3.2. При заморозке (аресте) или блокировании счета Вкладчика компетентными органами в порядке, установленном действующим законодательством Республики Узбекистан, прекратить осуществление операций по снятию средств со счета. |
| 6.3.3. Omonatchining hisobvarag'i vakolatli organlar tomonidan xatlangan yoki band solingan hollarda, Bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblamaslik. | 6.3.3. Не начислять проценты за период, когда средства на этом счете не могут быть использованы, в случаях, когда счет вкладчика был заморожен (арестован) или заблокирован компетентными органами. |
| 6.3.4. Kredit resurslar bozori konyukturasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 763-moddasiga asosan aholi omonatlari bo'yicha foiz stavkalarini Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga asosan o'zgartirish. | 6.3.4. Исходя из конъюнктуры рынка кредитных ресурсов, в соответствии со статьей 763 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, изменить процентные ставки по вкладам физических лиц согласно внутренним нормативным документам Банка. |
| Bunda yangi foiz stavkasi bank tomonidan o'rnatilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Avval qabul qilingan omonatlar bo'yicha saqlash muddati tugagunga qadar o'zgartirilgan foiz stavkalari qo'llanilmaydi. | В этом случае новая процентная ставка вступит в силу со дня ее установления банком. Изменение процентных ставок не будут применяться до окончания срока хранения ранее принятых вкладов. |

| | |
|---|---|
| 6.3.5. Omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lariga doir bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun Bankda o‘rnatilgan Tariflar asosida vositachilik haqini undirish.<br>6.3.6. Omonatchining bankdan olgan kredit (mikroqarz) larining asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari shartnomada belgilangan muddatda so‘ndirilmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 783-moddasiga muvofiq kredit (mikroqarz) larning asosiy qarzi va foiz qarzdorliklari bo‘yicha zarur mablag‘larni mazkur omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag‘laridan akseptsiz ravishda undirib olish.<br><br>**6.4. Bankning majburiyatlari:**<br>6.4.1. Omonat shartlarini elektron ko‘rinishda Bankning internet veb-saytida aks ettirish.<br>6.4.2. Oferta shartnomasi Omonatchi tomonidan akseptlangandan so‘ng omonat mablag‘larini kirim qilish hamda omonat bo‘yicha operatsiyalarni qayd etib borish maqsadida Omonatchining nomiga avtomatik tarzda hisobvaraqlarni ochish.<br>6.4.3. Ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida Omonatchiga foizlarni hisoblab borish va to‘lash hamda omonatchining omonatdagi pul mablag‘larini belgilangan muddatlarda elektron | 6.3.5. Взимать комиссионное вознаграждение на основании Тарифов, установленных Банком за услуги, осуществляемые по банковским операциям, связанных с денежными средствами на депозитном счете.<br>6.3.6. Взыскивать в безакцептном порядке необходимые денежные средства для погашения задолженности по основному долгу и процентам кредита (микрозайма) Вкладчика из средств на этом депозитном счете в соответствии со статьей 783 Гражданского кодекса Республики Узбекистан в случае не погашения задолженностей в срок, указанного в договоре по основному долгу и процентам кредита (микрозайма) вкладчика, полученного от банка.<br>**6.4. Банк обязан:**<br>6.4.1. Отображать в электронном виде условия вклада на сайте Банка.<br><br>6.4.2. После акцепта Вкладчиком договора-оферты автоматически открывать счета на имя Вкладчика для зачисления депозитных средств и учета депозитных операций.<br><br>6.4.3. Начислять и выплачивать проценты Вкладчику на основании условий, указанных в настоящем договоре, и обеспечить возврат денежных средств вкладчику в |

| | |
|---|---|
| shaklda, naqd pulsiz qaytarilishini ta’minlash.<br>6.4.4. Bank sirini tashkil etuvchi va shaxsiy ma’lumotlarni sir saqlanishini ta’minlash. Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. | электронном виде, безналичным путем, в указанные сроки.<br><br>6.4.4. Обеспечить конфиденциальность информации составляющую банковскую тайну и персональных данных. За исключением случаев, предусмотренных законом. |
| **7. Taraflarning javobgarligi**<br>7.1. Taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. | **7. Ответственность сторон**<br>7.1. В случае полного или частичного неисполнения сторонами обязательств, указанных в настоящем договоре, Стороны несут ответственность в порядке, установленном действующим законодательством Республики Узбекистан. |
| 7.2. Omonatchi tomonidan omonat “shartlari” va ushbu shartnomada belgilangan shartlarga rioya qilmaslik oqibatida Omonatchiga yetkazilgan zarar uchun Bank javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. | 7.2. Банк не несет ответственность за ущерб, причиненный Вкладчику в результате несоблюдения Вкладчиком “условий” вклада и условий, указанных в настоящем договоре. |
| 7.3. Omonatchi hisobvaraqqa kirim qilingan mablag‘larni qonuniyligi uchun shaxsan javobgardir. | 7.3. Вкладчик несет персональную ответственность за законность зачисленных на счет денежных средств. |
| **8. Maxfiylik**<br>8.1. Maxfiy ma’lumot deyilganda, mazkur shartnomani va uning shartlarini bajarish jarayonida bir tomon ikkinchi tomonga taqdim qiladigan har qanday ma’lumot nazarda tutiladi va tomonlar O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni, tijorat siri va shaxsiy ma’lumotlarning muhofazasi, | **8. Конфиденциальность**<br>8.1. Конфиденциальная информация означает любую информацию, предоставляемую одной стороной другой в ходе исполнения настоящего договора и его условий, и стороны обязаны соблюдать Закон Республики Узбекистан «О банковской |

| | |
|---|---|
| tarqatilishi hamda saqlanishiga oid boshqa qonun hujjatlariga rioya qilishlari shart. | тайне», коммерческую тайну и другие юридические (законодательные) документы по охране, распространения и хранения персональных данных. |
| 8.2. Agar qonun hujjatlarida boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa, tomonlar quyidagilarga majburdirlar: | 8.2. Если иное не установлено законодательством, стороны обязаны: |
| - boshqa tomonning oldindan yozma roziligisiz maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, mazmunini muhokama qilmaslik, nusxalarini bermaslik, nashr qilmaslik yoki uchinchi shaxslarga boshqacha tarzda oshkor qilmaslik; | - не разглашать, не обсуждать смысл, не давать копии, публиковать или иным образом раскрывать конфиденциальную информацию третьим лицам без предварительного письменного согласия другой стороны; |
| - maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish va ruxsatsiz oshkor etilishining oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish va barcha qonuniy vositalardan foydalanish; | - принимать все меры и использовать все законные средства для защиты конфиденциальной информации и предотвращения ее несанкционированного разглашения; |
| - maxfiy ma'lumotlardan faqat mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish. | - использовать конфиденциальную информацию только для выполнения обязательств по настоящему Договору. |
| 8.3. Omonatlar bo'yicha axborot bilan tanishish huquqi bo'lgan shaxslar amaldagi qonunchilikka muvofiq ularni oshkor qilmaslik uchun javobgar hisoblanadi hamda qat'iy sir saqlash qoidalariga rioya etishlari, shuningdek, bank siri va konfidensial ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishda O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amalda bo'lgan ichki tartib qoidalariga qat'iy amal qilishlari shart. | 8.3. Лица, имеющие право на доступ к информации о вкладах, несут ответственность за ее неразглашение в соответствии с действующим законодательством и обязаны соблюдать строгие правила конфиденциальности, а также предоставлять банковскую тайну и конфиденциальную информацию третьим лицам в соответствии с Законом Республики Узбекистана «О банковской тайне» и других действующих внутренних правил и порядков. |
| 8.4. Ushbu talablarni buzgan Taraf buning oqibatida ikkinchi Tarafga | 8.4. Сторона, нарушившая данные требования, обязана полностью |

| | |
|---|---|
| yetkazilgan barcha zararlarni to‘liq hajmda qoplashga majbur. | возместить все причиненные в результате этого убытки, другой Стороне. |
| **9. Fors-major holatlari** | **9. Форс-мажор** |
| 9.1. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (Fors-major) holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladilar. | 9.1. В случае наступления обстоятельств непреодолимой силы (Форс-мажор) стороны освобождаются от исполнения взаимных обязательств по договору до устранения этих обстоятельств. |
| 9.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS xabarlari bundan mustasno). | 9.2. Уведомления о возникновении или устранении форс-мажорных ситуаций могут направляться всеми доступными для сторон средствами связи (кроме SMS-сообщений). |
| 9.3. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarining sodir bo‘lganligi haqida ogohlantirmaslik, ushbu tomon uchun majburiyatlarning bajarilmasligi uchun asos qilib ko‘rsatilishi mumkin emas. | 9.3. Не предупреждение о наступлении обстоятельств непреодолимой силы (Форс-мажор) не может служить основанием для неисполнения обязательств этой стороной. |
| **10. Nizolarni hal qilish tartibi** | **10. Порядок разрешения споров** |
| 10.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar. | 10.1. Любые разногласия или споры, возникающие при исполнении настоящего договора, стороны решают путем переговоров. |
| 10.2. O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmagan taqdirda nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi. | 10.2. При отсутствии возможности достижения взаимного согласия споры разрешаются через суд в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан. |
| **11. Korrupsiyaga qarshi shartlar** | **11. Антикоррупционные положения** |

MAVRID MKBANK

| | |
|---|---|
| 11.1. Tomonlar shartnoma tuzishda shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishadilar. | 11.1. При заключении договора стороны обязуются не совершать коррупционных действий, связанных с договором, в течение срока действия договора и по истечении этого срока. |
| 11.2. Agar bir tomonga boshqa tomonning korrupsiyaga qarshi majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tomonni bu haqida zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tomondan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor qilishini talab qilishi shart. | 11.2. Если одной стороне станет известно, что другая сторона нарушила свои антикоррупционные обязательства, она обязана незамедлительно сообщить об этом второй стороне и потребовать от этой стороны принятия соответствующих мер в разумный срок и проинформировать о предпринятых действиях. |
| **12. Boshqa shartlar** | **12. Другие условия** |
| 12.1. Ushbu omonat O'zbekiston Respublikasining Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risidagi qonuniga asosan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining 2025-yil 11-avgustdagi 3663-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Banklar tomonidan Omonatlarni kafolatlash jamg'armasiga badallar to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan omonatlarni kafolatlash agentligi bir omonatchining bir bankdagi omonati uchun 200 million so'mgacha bo'lgan miqdorda kafolatlangan kompensatsiya to'lovini amalga oshiradi. Omonatning kafolatlangan summadan ortiqcha qismi bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining | 12.1. Данный вклад гарантирован в соответствии с Законом Республики Узбекистан «О гарантиях защиты вкладов в банках». В соответствии с Положением «О порядке уплаты взносов банками в Фонд гарантирования вкладов», утвержденным постановлением Правления Центрального банка Республики Узбекистан от 11 августа 2025 года № 3663, Агентство по гарантированию вкладов осуществляет гарантированную выплату возмещения по вкладу одного вкладчика в одном банке в размере до 200 миллионов сумов. Превышающая часть вклада над гарантированной суммой выплачивается банком в порядке, установленном Законом |

| | |
|---|---|
| “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida belgilangan tartibda to‘lab beriladi.<br>12.2. Mazkur shartnoma omonat summasi va unga hisoblangan foizlar Omonatchiga to‘liq qaytarib berilganidan so‘ng o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.<br>12.3. Mazkur shartnomada ko‘rsatib o‘tilmagan holatlarda taraflar amaldagi qonunchilik va Omonat shartlariga asoslanadi (rioya qiladi)lar.<br><br>**13. Rekvizitlar**<br>**«Mikrokreditbank» ATB**<br>**Adres:** 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 4-uy<br>**Tel.:** 1285 (+998) 55-503-63-63<br>**H/v:** 1990_000_00000433001<br>**MFO:** 00433<br>**STIR:** 200547792<br>**E-mail:** office@mikrokreditbank.uz | Республики Узбекистан «О гарантиях защиты вкладов в банках».<br><br>12.2. Настоящий договор считается утратившим силу после полного возврата суммы вклада и начисленных процентов Вкладчику.<br>12.3. В случаях, не указанных в настоящем договоре, стороны руководствуются (соблюдают) действующим законодательством и условиями Вклада.<br><br>**13. Реквизиты**<br>**АКБ «Микрокредитбанк»**<br>**Адрес:** г. 100047, Республика Узбекистан, город Ташкент, Мирабадский район, проспект Амира Темура, 4<br>**Тел.:** 1285 (+998) 55-503-63-63<br>**Р/с:** 1990_000_00000433001<br>**МФО:** 00433<br>**ИНН:** 200547792<br>**E-mail:** office@mikrokreditbank.uz |